

## GLOSSARIY

### (Antekologiyada qo'llaniladigan asosiy atamalar izoxi)

**Abiotik omil** – jonsiz tabiat omillari.

**Avtogamiya** – o'simlik gulining o'z-o'zidan changlanish jarayoni.

**Adaptatsiya** – organizmlarning tashqi muhit ta'siriga moslashuvi.

**Anemofiliya** – o'simlik gulining shamol yordamida changlanishi.

**Aktinomorf gul** – to'g'ri gul.

**Allogamiya** – o'simlik gulining chetdan changlanishi.

**Androtsey** – guldagi changchilar to'plami.

**Antekologiya** – o'simlikning gullashi va changlanish jarayoni ekologiyasini o'rganavchi fan.

**Antropogen omil** – inson faoliyati bilan bog'liq omillar.

**Apoxlamid gul** – qo'rg'onsiz gul.

**Apokarp genetsey** – urug'chi bitta meva bargchadan hosil bo'lgan.

**Assimetrik gul** – noto'g'ri gul.

**Biomorfa** – o'simlikning tashqi ko'rinishi va holati.

**Biotik omil** – jonli tabiat (o'simlik, hayvonot, mikroorganizmlar dunyosi) omillari.

**Biotsenoz** – bir joyning o'zida birga yashaydigan barcha organizmlar jamoasi.

**Galofit** – sho'r erda o'suvchi o'simliklar.

**Gidrofiliya** – suv yordamida changlanish.

**Gidrofit** – suv ichida o'sadigan o'simliklar.

**Geleofit** – yorug'sevar o'simliklar.

**Generativ organ** – o'simlikning ko'payishida ishtirok etuvchi organlar (gul, meva, urug').

**Geteroxlomid gul** – qo'sh gulqo'rg'onli gul.

**Geterokarpiya** – o'simlikda har xil kattalik va shakldagi mevalarni hosil bo'lishi.

**Gimikriptofit** – qishlovchi kurtaklari er yuzasida joylashgan ko'p yillik o'tlar.

**Ginetsey** – guldagi urug'chilar to'plami.

**Gomoxlomid gul** – oddiy gulqo'rg'onli gul.

**Gul** – shakli o'zgargan va qisqargan novda.

**Gullash** – gulli o'simliklar ontogenezining alohida davri.

**Gulkosa** – guldagi kosachabarglar to'plami.

**Gultoj** – guldagi gultojibarglar to'plami.

**Zigomorf gul** – qiyshiq gul.

**Introduktsiya** – iqlimlashtirish (madaniylashtirish).

**Kriofil o'simliklar** – past harorat mavjud sharoitda yashovchi o'simliklar.

**Kserofit** – qurg'oqchil sharoitda o'sishga moslashgan o'simliklar.

**Mezofit** – o'rtacha namlik sharoitda o'suvchi o'simliklar.

**Monoxlamid** – faqat kosachabarglardan iborat gulqo'rg'onga ega gullar.

**Monokarp** – hayotida bir marta gullab, meva beruvchi o'simliklar.

**Muhit omillari** – organizmni o'rab turgan shart-sharoitlar va ta'sirlar majmui.

**Nektar** – gulda ajraluvchi suyuqlik.

**Nektardon** – nektar ajratuvchi gulning qismi.

**Ornitofiliya** – gulning qushlar yordamida changlanishi.

**Polikarp** – hayotida ko'p marta gullab, meva hosil qiluvchi o'simliklar.

**Plantseta** – urug'kurtakning tuguncha devoriga birikkan joyi.

**Sukulent** – tanasi, poyasi va bargida suvni zahira holda saqlovchi o'simliklar.

**Sklerofit** – poyasi dag'al, barglari reduktsiyalashgan o'simliklar.

**Stsiofit** – soyasevar o'simliklar.

**Teka** – chang xaltalari.

**Termofil o'simlik** – issiqsevar o'simliklar.

**Tripping** – gulni ochilish jarayoni.

**Fanerofit** – qishlovchi kurtaklari tuproq yuzasidan 30 sm dan yuqorida joylashadigan buta va daraxt o'simliklar.

**Xamefit** – qishlovchi kurtaklari tuproq yuzasidan 20-30 sm da joylashadigan chala butalar.

**Xrepterofiliya** – gulning ko'rshapalaklar yordamida changlanishi.

**Senokarp ginetsey** – urug'chining tuzilishida 2 va undan oshiq mevbargchalar ishtirok etadi.

**Ekologiya** – organizmlarning bir-biri va tashqi muhit sharoiti bilan o'zaro munosabat qonuniyatlarini o'rganadigan fan.

**Ekologik omil** – tashqi muhit omillari.